

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAJIYEV BAXTIYOR DUSHABOYEVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA TAQSIMOT MUNOSABATLARINI DAVLAT**  
**TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации**

**Contents of the Doctoral (DSc) dissertation abstract**

**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**

Milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish..... 3

**Хажиев Бахтиёр Душабоевич**

Совершенствование механизма государственного регулирования распределительных отношений в национальной экономике..... 37

**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboevich**

Improving the mechanism of state regulation of distribution relations in the national economy..... 73

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 79

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/30.01.2021.I.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**  
**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**XAJIYEV BAXTIYOR DUSHABOYEVICH**

**MILLIY IQTISODIYOTDA TAQSIMOT MUNOSABATLARINI DAVLAT**  
**TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMINI**  
**TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.DSc/Iqt419 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.tsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Abdullayev Suyun Artikovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Murodova Nodira Kulliyevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**G'aniyev Muxamatjon Xalilovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 12.03 soat 14<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. tel. (71) 239-28-72), faks (71) 249-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (411 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. tel. (71) 239-28-72), faks (71) 249-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «26» 02 da tarqatildi.  
(2024-yil «26» 02 daqi 46 raqamli reyestr bayonnomasi)



**S.K. Xudoyqulov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**D.S. Nasirxodjayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

**U.V. Gafurov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda so‘ngi yillarda resurs va daromadlarning notekis taqsimoti natijasida mamlakatlar rivojlanishi hamda aholi daromadlari o‘rtasida kuchli tabaqalanish tendensiyasi kuzatilmoqda. Ayniqsa, “milliy daromad notekis taqsimlanishining yuqori darajasi AQSh, Xitoy, Hindiston va Rossiyada, o‘rtacha darajasi esa, G‘arbiy Yevropa davlatlariga to‘g‘ri keladi. Agar 1980-yillarda AQShda yuqori daromadga ega bo‘lgan 1 foiz aholining o‘rtacha daromadi 439 ming AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 50 foiz past daromadga ega bo‘lgan aholining o‘rtacha daromadi 16,4 ming AQSh dollarini tashkil etgan, ya’ni 26,4 barobarga ko‘p bo‘lgan. Ushbu ko‘rsatkich 2022-yilga kelib mos ravishda 1 572 ming va 16,6 ming AQSh dollarini tashkil etib, 42 yilda yuqori daromadlilarniki 3,6 barobarga, past daromadlilarniki esa, atiga 1 foizga oshgan. Ular o‘rtasidagi farq 94,7 barobarni tashkil qilgan”<sup>1</sup>. Bu, o‘z navbatida, jahon miqyosida taqsimot munosabatlarini tartibga solish mexanizmining konseptual asoslarini takomillashtirishni taqozo qilmoqda.

Jahonda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarda taqsimot jarayonlari, ayniqsa, qayta taqsimlash jarayonlarida ijtimoiy adolat va samaradorlik uyg‘unligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish masalalarini hal qilish global muammo sifatida o‘rganilmoqda. Jumladan, taqsimot siyosatining ochiqligini ta’minlash, byudjet mablag‘larini samarali qayta taqsimlashda davlat va xususiy sektor boshqaruvining chegaralarini aniqlashtirish, byudjet mablag‘larini ta’minlashda vakolatli organlarning ahamiyatini kuchaytirish, daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida aholi ishtirokini kengaytirish, moliyaviy ma’lumotlarning ochiqligi ta’minlanishida real vaqt rejimiga amal qilinishi va uni samarali realizatsiya qilish bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va aholi farovonligini ta’minlashda daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlari samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, samarali taqsimot tizimini yaratish orqali “konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligini 2024-yilda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4 foizdan va kelgusi yillarda 3 foizdan past bo‘lgan miqdorda bo‘lishini ta’minlash”<sup>2</sup>, shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida “har bir tuman byudjetining kamida 5 foizini “Fuqarolar byudjeti” dasturi doirasida aholining takliflari asosida eng dolzarb muammolarni yechishga sarflashni tashkil qilish”<sup>3</sup> masalalari strategik vazifalar sifatida belgilangan. Byudjet ochiqligini kengaytirish vazifasi daromadlarni qayta taqsimlash jarayonida ochiqlikni ta’minlashning konseptual asoslarini chuqur ilmiy tahlil qilishni taqozo etmoqda. Shuningdek, qayta taqsimot jarayonlarida iqtisodiyot subyektlari uchun shaffof

<sup>1</sup> <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/about/annual-report#anchor-annual>; В.Г.Клинов, А.А.Сидоров Мировые тенденции в распределении доходов и проблемы социальноэкономического развития // Вопросы экономики. 2018. № 7. -С. 33 // [https://mgimo.ru/upload/2022/01/Voprosy\\_ekonomiki\\_Mirovye\\_tendencii\\_v\\_raspredelenii\\_dohodov\\_i\\_problemy\\_socialno-ekonomicheskogo\\_razvitiya.pdf](https://mgimo.ru/upload/2022/01/Voprosy_ekonomiki_Mirovye_tendencii_v_raspredelenii_dohodov_i_problemy_socialno-ekonomicheskogo_razvitiya.pdf)

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF–158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // <https://lex.uz/docs/-6600413>

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

byudjet tizimini rivojlantirish, tashabbuskor byudjet jarayonlarida mablag'lar taqsimotida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy ziddiyatlarni prognoz qilish, davlat boshqaruv organlarining byudjet ochiqqligini ta'minlash jarayonidagi ishtirokini rag'batlantirish kabi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-4947-son “2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-son “Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonlari, 2018-yil 22-avgustdagi PQ-3917-son “Byudjet ma'lumotlarining ochiqqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”, 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”, 2021-yil 22-sentyabrdagi PQ-5250-son ““Ochiq byudjet” axborot portalida jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 7-apreldagi PQ-197-son “Tuman va shahar byudjetlarini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo'naltirish jarayonlarida fuqarolarning ishtirokini yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi qarorlari va shu kabi qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi.**<sup>4</sup> Taqsimot jarayonlarini samarali tashkil qilish usullarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Harvard University, University of Chicago, Economic Development

---

<sup>4</sup> Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi quyidagi manbalar asosida tayyorlangan: Jeroen C.J.M. van den Bergh The GDP paradox. *Journal of Economic Psychology*. 30 (2009) 117-135 // <http://www.elsevier.com/locate/joep>; Michele Modugno, Barış Soybilgenb, Ege Yazganb. Nowcasting Turkish GDP and news decomposition. *International Journal of Forecasting* 32 (2016) 1369-1384. // <http://www.elsevier.com/locate/ijforecast>; Scott Sumner Nominal GDP futures targeting. *Journal of Financial Stability* 17 (2015) 65-75 // <http://www.elsevier.com/locate/jfstabil>; George Yannis, Eleonora Papadimitriou, Katerina Folla Effect of GDP changes on road traffic fatalities. *Safety Science* 63 (2014) 42-49 // <http://www.elsevier.com/locate/ssci>; Adams, F. G., & Chen, Y. (1996). Skepticism about Chinese GDP growth - The Chinese GDP elasticity of energy consumption. *Journal of Economic and Social Measurement*, 22(4), 231-240 // <http://www.elsevier.com/locate/euroecorev>; Fabrice Murtin, Romina Boarini, Juan Carlos Cordoba, Marla Ripoll Beyond GDP: Is there a law of one shadow price? *European Economic Review* 100 (2017) 390–411 // <http://www2.bc.edu/~irelandp/ec132.html>; Ida Kubiszewski, Robert Costanza, Carol Franco, Philip Lawn, John Talberth, Tim Jackson, Camille Aylmer Beyond GDP: Measuring and achieving global genuine progress. *Ecological Economics* 93 (2013) 57-68 // <http://www.elsevier.com/locate/ecoconl>; K.Peren Arin, Michael Berlemann, Faik Koray and Torben Kuhlenkasper Nonlinear growth effects of taxation: a semi-parametric approach using average marginal tax rates. *Journal of applied econometrics*. *J.appl.econ.* 28: 883-899 (2013) // <http://www.montpellier-bs.com>; Иванов Ю.Н. Основы национального счетоводства. Учебник. -М.: Финансы и статистика. 2006. - 158 с.; Кулагина Г.С. Национальное счетоводство. Учебник. -М.: Финстатинформ, 1998. -436с.

Institute of the World Bank, Massachusetts Institute of Technology, Stanford University (Leland Stanford Junior University) (AQSh), Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD) (Fransiya), World Intellectual Property Organization (WIPO) (Shvesariya), Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC) (Singapur), Montpellier Business School (Fransiya), The University of Manchester, Oxford University (Buyuk Britaniya), Organization for Small and Medium Enterprises and Regional Innovation (SMRJ) (Yaponiya), Universidad de Buenos Aires, UBA (Argentina), The Institut für Mittelstandsforschung (IfM) (Germaniya), Институт экономической политики, Московский государственный университет (Россия) tomonidan amalga oshirilmoqda.

Taqsimot jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha jahonda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarda qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: ikkilamchi daromadlarni shakllantirishda sof soliqlarni hisobga olish mexanizmlari takomillashtirilgan (Economic Development Institute, World bank, Harvard University, Peterson Institute for International Economics, University of Chicago, AQSh); ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni birlamchi taqsimlash ularning harakat shakllarini aniqlash asosida takomillashtirilgan (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD), Fransiya); taqsimot jarayonlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillarning korrelyatsion va regression modellari ishlab chiqilgan (World Intellectual Property Organization (WIPO), Shvesariya; Asia-Pacific Economic Cooperation (APEC), Singapur; Montpellier Business School, Fransiya); daromadlarni qayta taqsimlashda xufyona iqtisodiyot salmog'ini hisoblashning bevosita va bilvosita usullari ishlab chiqilgan (Oxford University, Buyuk Britaniya); davlatning monetar ta'sir qilish usullarini takomillashtirish orqali daromadlarning adolatli qayta taqsimotini ta'minlashning metodologik yo'nalishlari ishlab chiqilgan (Organization for Small and Medium Enterprises and Regional Innovation (SMRJ), Yaponiya; The Institut für Mittelstandsforschung (IfM), Germaniya); taqsimot jarayonlarida ishlab chiqarish omillarining ishtirokini inobatga olgan holda birlamchi taqsimlash natijalari samaradorligini hisoblash uslubiyati ishlab chiqilgan (Институт экономической политики, Московский государственный университет, Россия).

Jahonda taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish usullarini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: taqsimot jarayonlarining noto'g'ri tashkil qilinishi sababli yuzaga keladigan inflyatsiya, yuqori darajadagi tashqi va ichki qarz, samarasiz ijtimoiy transfertlar, daromadlar tengsizligi, kambag'allik muammolarini hal qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish; takror ishlab chiqarish jarayonlarining davomiyligi va samaradorligini ta'minlovchi oqilona hamda adolatli taqsimot mexanizmini joriy qilish; daromadlarni qayta taqsimlashning ochiqligi va shaffofligi hamda shu jarayonda uy xo'jaligi sektorining faol ishtirokini ta'minlash.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Taqsimot jarayonlarini tartibga solishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlar tomonidan muayyan darajada o'rganilgan. Jumladan, taqsimot munosabatlarini bozor talabi orqali tartibga solish muammolari J.Keyns, "xarajat-natija" jadvali asosida yalpi milliy daromadni taqsimlash uslubiyatini takomillashtirish R.Stoun, taqsimot samaradorligiga ta'sir

qiluvchi omillarni modellashtirish J.Marshall va J.Xiks, davlat byudjetining daromad va xarajatlari mutanosibligini ta'minlash E.Xansen, R.Dorbnush, S.Fisher, tarmoqlararo balans asosida YaIMni birlamchi taqsimlash V.Leontyev va boshqa olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan<sup>5</sup>.

Daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini tadqiq qilish bilan bog'liq tadqiqot ishlari MDH mamlakatlaridagi qator olimlarning izlanishlarida ma'lum darajada tadqiq etilgan. Jumladan, taqsimot jarayonlarining aholi turmush darajasiga ta'siri M.V.Batyukov va I.V.Nyuxnya, daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmini takomillashtirish A.P.Dudevich, taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi M.R.Shagiixmetov, S.G.Shaginyan, daromadlarni qayta taqsimlashda soliqlarning o'rni va roli A.E.Chistyakov, byudjet ochiqligini ta'minlash, tashabbusli byudjet, byudjet shaffofligi N.A.Guz, V.D.Lukina, A.V.Lukyanova va boshqalarning ilmiy izlanishlarida o'rganilgan.

O'zbekistonlik olimlar tomonidan taqsimot jarayonlarining umumiy jihatlari muayyan darajada o'rganilgan va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar davom etmoqda. Jumladan, aholi daromadlarini qayta taqsimlashning nazariy jihatlari T.O.Saparov, resurs va mahsulotlar taqsimotining amal qilish qonuniyatlari Sh.Sh.Shodmonov, T.T.Jo'rayev, N.To'xliyev, daromadlarni qayta taqsimlashda davlatning byudjet-soliq siyosati N.B.Ashurova, A.S.Jo'rayev, X.M.Isayev, T.S.Malikov, I.M.Niyazmetov, ochiq va tashabbusli byudjet tizimini takomillashtirish orqali daromadlarni samarali qayta taqsimlash muammolari G.M.Samandarova, X.X.Xamidovlarning tadqiqot ishlarda o'rganilgan<sup>6</sup>.

Biroq, amalga oshirilgan tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlar asosan yaratilgan mahsulot va daromadlarni taqsimlash, davlatning byudjet-soliq siyosatini takomillashtirish, byudjet mablag'larini optimal taqsimlash uslubiyatini ishlab chiqish, ochiq byudjet tizimini rivojlantirish kabi masalalarga qaratilgan. Ammo, ularda taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish, taqsimot jarayonlarida uy xo'jaligi ishtirokini

---

<sup>5</sup> Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. Пер.с англ. - М.: Гелиос АРВ, 1999. - 352 с.; Стоун Р. Метод «затраты-выпуск» и национальные счёта. - М.: Статистика, 1964. - 212 с.; Маршалл Ж. Новые элементы французской системы национальных счётов. - М.: Статистика, 1967. - 374 с.; Хикс Дж. Стоимость и капитал. - М.: Прогресс, 1993. - 240 с.; Хансен Э. Экономические циклы и национальный доход. -М.:Иностранная литература, 1959. - 256 с.; Дорнбуш Р., Фишер С. Макроэкономика. Пер. с англ. - М.: МГУ: Инфра 1997. - 450 с.; Леонтьев В. Экономические эссе. - М.: Политиздат, 1990. - 415 с.

<sup>6</sup> Saparov T.O. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida daromadlarni taqsimlash munosabatlarini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya ishi avtoreferati. -T.: 2001. - 32 b.; Shodmonov Sh.Sh, Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. -T.: «Barkamol avlod media». 2002. - 784 b.; To'xliyev N. Taraqqiyotning o'zbek modeli. - T.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti. 2012. - 180 b.; Ashurova N.B. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: TMI, 2018. - 72 b.; Jo'rayev A. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishning samarali yo'llari. Monografiya. -T.: “Fan” nashriyoti, 2004 y. - 243 b.; Isayev X.M. Davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda to'g'ri (bevosita) soliqlarning ahamiyatini oshirish. // “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. - Toshkent, 2019. №6-son. 1-10-b.; Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. Monografiya. – T.: “Akademiya” nashriyoti, 2002. - 204 b.; Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta'minlash // Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: BMA, 2018. - 70 b.; Samandarova G.M. O'zbekistonda byudjet ochiqligini ta'minlashni takomillashtirish // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2023. -57 b.; Xamidov X.X. Davlat moliyasini isloh etish jarayonida tashabbusli byudjetlashtirish istiqbollari // Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T.: 2023. -62 b.

faollashtirish, daromadlarni qayta taqsimlashning zamonaviy modellarini ishlab chiqish masalalari ikkinchi darajali muammo sifatida qolib ketgan. Mazkur holat muammoning dolzarblik darajasi yanada oshishiga va ushbu mavzuni tanlashga asos bo'ldi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-1 "O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni prognozlashning ilmiy-metodik asoslari va usullarini takomillashtirish" va OT-F1-155. "Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash jarayonida xarajatlar miqdorini kamaytirish, tarkibini takomillashtirishning fundamental (nazariy) asoslarini ishlab chiqish" mavzusidagi ilmiy loyihalar doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

taqsimot jarayonlari shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari to'g'risidagi turli xil nazariy qarashlarni retrospektiv tahlil qilish;

taqsimot jarayonlari samaradorligini baholashning konseptual asoslarini ilmiy tadqiq etish;

qayta taqsimlash jarayonlarini tartibga solish mexanizmi va uning amal qilish qonuniyatlarini o'rganish;

taqsimot munosabatlarini tartibga solishning institutsional omillaridan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash;

daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarini tartibga solishning fiskal vositalarini tahlil qilish;

respublikada "Tashabbusli byudjet" tizimi orqali taqsimot jarayonlari samaradorligini oshirish yo'llarini ko'rsatish;

daromadlarni qayta taqsimlashning solikli va soliqsiz mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

respublikada daromadlarni qayta taqsimlash yo'nalishlari va tendensiyalarini ilmiy-amaliy tahlil etish;

daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida uy xo'jaligi sektori faolligini oshirish mexanizmini takomillashtirish.

**Tadqiqotning obyektini** O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti tizimi tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib daromadlarni taqsimlash va qayta taqsimlash jarayonlarida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya tadqiqoti jarayonida dialektik, tarixiylik va mantiqiylik, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellash, statistik, korrelyatsion va regression tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra "taqsimot" kategoriyasi egri soliqlar, dividend, foyda va boshqa manbalar ko'rinishida olingan ham birlamchi, ham

ikkilamchi daromadlar hamda iqtisodiy imkoniyat, resurslar va salohiyatning uzluksiz ravishda, qayta takrorlanib boruvchi taqsimlanish jarayonlarini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabat nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra, qayta taqsimot jarayonlarining ijtimoiy nafliligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi kam ta'minlangan fuqarolar uchun zarur bo'ladigan asosiy kapital bilan ta'minlashda davlat tomonidan subsidiya berish tizimini joriy qilish orqali byudjet daromadlarini samarali qayta taqsimlash, ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining samarali bandligini ta'minlash hamda ularning kambag'allikka tushib qolishining oldini olish imkoniyatini yaratish asoslangan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra institutsional nazariyaga taalluqli bo'lgan taqsimot munosabatlarini rivojlantirish asosida davlatning rag'batlantiruvchi funksiyasi o'rta tadbirkorlik subyektlariga ko'chmas mulk va asbob-uskunalar xaridi uchun sarflanadigan xarajatlarning 70 foizini davlat tomonidan "xizmatlar ipotekasi"ni taqdim etish asosida qo'llab-quvvatlash orqali takomillashtirilgan;

ijtimoiy tanlov nazariyasining jamoat ishtirokidagi taqsimot nazariyasini rivojlantirilgan holda mamlakatda daromadlarni qayta taqsimlash samaradorligini mahalliy (tuman, shahar va viloyat) byudjetlari qo'shimcha mablag'larining uchdan bir qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish orqali oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekistonda qayta taqsimot jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida 2030-yilga bo'lgan davrda aholi daromadlarini oshirishning ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

taqsimot jarayonlari samaradorligini baholash bo'yicha yangicha uslubiy yondashuv ishlab chiqilgan;

birlamchi taqsimot jarayonlarida taqsimlanadigan yaratilgan mahsulot va xizmatlar tarkibiga kiruvchi elementlar miqdorini optimallashtirishga xizmat qiladigan faoliyat turlari aniqlangan;

taqsimot jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modellari ishlab chiqilgan;

respublikada daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarini samarali tashkil qilishda ijtimoiy sohaning o'rni va rolini oshirish modeli ishlab chiqilgan;

daromadlarni qayta taqsimlashning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

taqsimot jarayonlarini tartibga soluvchi institutlar faoliyatini takomillashtirish yo'llari ko'rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** unda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiya ishida olingan ilmiy xulosa va takliflardan respublikada daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish, daromadlarni qayta taqsimlashning samarali mexanizmini ishlab chiqishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida nazariy-uslubiy asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya ishida ishlab chiqilgan tavsiyalardan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida byudjet xarajatlarini samarali taqsimlash jarayonida foydalanish, dissertatsiya materiallaridan oliy o‘quv yurtlarida “Iqtisodiyot nazariyasi”, “Davlat byudjeti”, “Byudjet nazorati va g‘aznachilik”, “Soliq va soliqqa tortish” fanlari bo‘yicha o‘quv, o‘quv-uslubiy materiallarni takomillashtirish hamda o‘qitish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra “taqsimot” kategoriyasini egri soliqlar, dividend, foyda va boshqa manbalar ko‘rinishida olingan ham birlamchi, ham ikkilamchi daromadlar hamda iqtisodiy imkoniyat, resurslar va salohiyatning uzluksiz ravishda, qayta takrorlanib boruvchi taqsimlanish jarayonlarini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabat nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma‘lumotlardan 410 000-“Biznes va boshqaruv” va 310 000-“Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar” ta‘lim sohalarining barcha ta‘lim yo‘nalishlari talabalarini uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiyot”, 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiy rivojlanish strategiyalari” nomli darslik hamda o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyruqlari). Mazkur ilmiy natijalardan darsliklarda foydalanish bakalavriat va magistratura talabalarida “taqsimot” va “qayta taqsimot” iqtisodiy kategoriyalarining mohiyatini to‘g‘ri va kengroq tushunishlariga imkon yaratgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko‘ra, qayta taqsimot jarayonlarining ijtimoiy nafliligini oshirishda tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanish istagidagi kam ta‘minlangan fuqarolar uchun zarur bo‘ladigan asosiy kapital bilan ta‘minlashda davlat tomonidan subsidiya berish tizimini joriy qilish orqali byudjet daromadlarini samarali qayta taqsimlash, ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining samarali bandligini ta‘minlash hamda ularning kambag‘allikka tushib qolishining oldini olish imkoniyatini yaratishga oid nazariy va uslubiy ma‘lumotlardan 410 000-“Biznes va boshqaruv” va 310 000-“Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar” ta‘lim sohalarining barcha ta‘lim yo‘nalishlari talabalarini uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiyot”, 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) ta‘lim yo‘nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan “Iqtisodiy rivojlanish strategiyalari” nomli darslik hamda o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston

Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyruqlari; O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 5-fevraldagi №01/00-02/26-19-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bakalavriat va magistratura talabalarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish istagidagi kam ta'minlangan fuqarolar uchun zarur bo'ladigan asosiy kapital bilan ta'minlashda davlat tomonidan subsidiya berish tizimini joriy qilish orqali byudjet daromadlarini samarali qayta taqsimlash borasidagi nazariy-uslubiy tushunchalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra institutsional nazariyaga taalluqli bo'lgan taqsimot munosabatlarini rivojlantirish asosida davlatning rag'batlantiruvchi funksiyasi o'rta tadbirkorlik subyektlariga ko'chmas mulk va asbob-uskunalar xaridi uchun sarflanadigan xarajatlarning 70 foizini davlat tomonidan "xizmatlar ipotekasi"ni taqdim etish asosida qo'llab-quvvatlash orqali takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma'lumotlardan 410 000-"Biznes va boshqaruv" va 310 000-"Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar" ta'lim sohalarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalarini uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot", 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy rivojlanish strategiyalari" nomli darslik hamda o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyruqlari; O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 5-fevraldagi №01/00-02/26-19-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bakalavriat va magistratura talabalarida o'rta tadbirkorlik subyektlariga ko'chmas mulk va asbob-uskunalar xaridi uchun sarflanadigan xarajatlarning ahamiyatli qismini davlat tomonidan «xizmatlar ipotekasi» asosida taqdim etish orqali qo'llab-quvvatlash bo'yicha nazariy-uslubiy tushunchalarini kengaytirish imkoni yaratilgan;

ijtimoiy tanlov nazariyasining jamoat ishtirokidagi taqsimot nazariyasi rivojlantirilgan holda mamlakatda daromadlarni qayta taqsimlash samaradorligini mahalliy (tuman, shahar va viloyat) byudjetlari qo'shimcha mablag'larining uchdan bir qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish orqali oshirish taklifiga oid nazariy va uslubiy ma'lumotlardan 410 000-"Biznes va boshqaruv" va 310 000-"Ijtimoiy va xulq atvorga mansub fanlar" ta'lim sohalarining barcha ta'lim yo'nalishlari talabalarini uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiyot", 60310100-Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalarini uchun tavsiya etilgan "Iqtisodiy rivojlanish strategiyalari" nomli darslik hamda o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 31-maydagi 169-sonli buyruqlari; O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik

vazirligining 2024-yil 5-fevraldagi №01/00-02/26-19-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bakalavriat va magistratura talabalarida mamlakatda daromadlarni qayta taqsimlash samaradorligini mahalliy (tuman, shahar va viloyat) byudjetlari qo'shimcha mablag'larining muayyan qismini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish orqali oshirish borasidagi nazariy-uslubiy tushunchalarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda qayta taqsimot jarayonlariga ta'sir qiluvchi omillar o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modeli asosida ishlab chiqilgan 2030-yilga bo'lgan davrda aholi daromadlarini oshirishning ko'p variantli prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan "Mamlakat hududlarida aholi daromadlarini oshirish va kabag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari dasturi"ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 5-fevraldagi №01/00-02/26-19-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy takliflarning amaliyotga joriy etilishi natijasida mamlakatda uzoq muddatli istiqbolda aholi daromadlarini oshirish ko'rsatkichlarining iqtisodiy rivojlanishning asosiy parametrlariga muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Tadqiqot natijalari 9 dan ortiq respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, 1 ta monografiya, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 262 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Milliy iqtisodiyotda taqsimot jarayonlarini tadqiq qilishning nazariy-uslubiy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida taqsimot jarayonlarining mazmun-mohiyati, shakllanish va rivojlanish bosqichlari hamda amal qilish qonuniyatlari to'g'risidagi turli xil nazariyalar tahlil qilinib, uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmini takomillashtirishning obyektiv zarurligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqotlar taqsimot muammosi turli xil nazariy qarashlarda turlicha talqin qilingan bo‘lib, ulardan eng asosiylari quyidagilardan iborat ekanligini ko‘rsatdi:

1. “Qiyamatning mehnat nazariyasi”ga ko‘ra, taqsimot ishchi kuchi uchun qiymat bo‘yicha, kapitalist uchun esa, kiritilgan kapital bo‘yicha amalga oshiriladi<sup>7</sup>.

2. “Neoklassik nazariya”ga ko‘ra, daromadlarning taqsimlanishi har bir ishlab chiqarish omilining hissasiga muvofiq amalga oshiriladi<sup>8</sup>.

3. “Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi”ga ko‘ra, pirovard taqsimot daromadlar taqsimotining barcha usullarini birlashtirish natijasida yuzaga keladi<sup>9</sup>.

Tadqiqotlar “Taqsimot” kategoriyasiga berilgan ta’riflarni tahlil qilish asosida mualliflar tomonidan bir qator masalalarning e’tibordan chetda qolganligini ko‘rsatdi. Jumladan, ularning aksariyati “Taqsimot” kategoriyasini yoritishda unga asosan qiymat shakllanishi va daromadlar taqsimlanishi nuqtayi nazaridan yondashganlar. Ammo, daromadlarni qayta taqsimlash jarayonida egri soliqlar, dividend, foyda va shu kabilar hosil bo‘lishining asl manbalari hamda ularning taqsimlanish mexanizmi aniq ko‘rsatilmagan.

Muallif fikricha, taqsimot jarayoni bu – olingan daromadlarning (ham birlamchi, ham ikkilamchi) yangi taqsimoti bo‘lib, u jamiyatdagi ayrim guruh a’zolari daromadlarining ko‘payishi boshqalarnikini kamayishi hisobiga amalga oshirilishini ko‘zda tutadigan iqtisodiy munosabatdir.

Taqsimot jarayonlari faqatgina pul, tovar va xizmatlar bilan cheklanib qolmaydi, balki, shu bilan birga, iqtisodiy imkoniyat, resurslar va salohiyat ham qayta taqsimlanishi mumkin. Masalan, ish haqi, narx, bojxona to‘lovlari va boshqa iqtisodiy indikatorlarning davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida jamiyatning ayrim a’zolari afzalikka ega bo‘lsa, bunday taqsimot boshqalar uchun daromad olish imkoniyatini qisqartiradi.

Umuman, muallif fikricha, “taqsimot” va “qayta taqsimot” kategoriyalarining mohiyatini ochib berishda egri soliqlar, dividend, foyda va boshqa manbalar ko‘rinishida olingan ham birlamchi, ham ikkilamchi daromadlar hamda iqtisodiy imkoniyat, resurslar va salohiyatning uzluksiz ravishda, qayta takrorlanib boruvchi taqsimlanish jarayonlarini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabat nuqtayi nazaridan yondashish zarur. Muammoni tadqiq qilishga bunday yondashish taqsimot jarayonlarining barcha bosqichlarini chuqur tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, taqsimot jarayonida eng asosiy ikkita vazifa bajariladi.

1. Ijtimoiy vazifa – aholi o‘rtasidagi tabaqalanish nisbatini kamaytirish maqsadida muayyan vositalar orqali kam ta’minlanganlar daromadini boshqalar hisobidan oshirishga qaratiladi.


2. Tartibga solish vazifasi yordamida iqtisodiyot subyektlari turli xil vositalar orqali rag‘batlantiriladi va ular faoliyati tartibga solib turiladi.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, taqsimot va takror ishlab chiqarish jarayoni o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagicha tasvirlash mumkin (1-rasm).

<sup>7</sup> Карл Маркс КАПИТАЛ. Том I // <http://www.esperanto.mv.ru/Marksismo/Kapital1/index.html>

<sup>8</sup> Альфред Маршалл Принципы экономической науки. // <http://ek-lit.narod.ru/marsod6.htm>

<sup>9</sup> Довбенко М. В., Осик Ю. И. Современные экономические теории в трудах нобелиантов // Академия Естествознания. 2011. ISBN: 978-5-91327-155-6. // <https://www.monographies.ru/ru/book/view?id=129>



**1-rasm. Taqsimot va takror ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasidagi bog'liqlik<sup>10</sup>**

Yuqoridagi sxema shuni ko'rsatadiki, unga ko'ra, subyektlar tomonidan shakllantirilgan daromadlar davlat tomonidan taqsimlanadi va ijtimoiy soha xizmatlarini moliyalashtirish hamda boshqa subyektlarga beg'araz to'lovlar (qayta taqsimlanadigan daromadlar) berishga sarflanadi. Shuningdek, qayta taqsimlangan daromadlarga ayrim toifadagi subyektlar tomonidan bepul foydalanilayotgan ijtimoiy ne'matlarni ham kiritish mumkin. Shunday qilib, daromadlarni qayta taqsimlash natijasida ayrim subyektlar davlatdan ikki turdagi, ya'ni qayta taqsimlangan mablag'lar va ijtimoiy ne'matlarni oladilar. Keyin, barcha subyektlar o'z daromadlarining bir qismini yana davlatga to'laydilar. Shuningdek, daromadning bir qismi jamg'arishga va import mahsulotlarni sotib olishga sarflanishi ham mumkin. Bunda eksportdan keladigan daromad miqdori har doim ham import xarajatlariga teng kelavermaydi. Ushbu holat ayniqsa, zamonaviy ochiq iqtisodiyot sharoitida muhimdir. Ushbu vaziyatni yetarli darajada baholamaslik noto'g'ri hisob-kitoblarga olib keladi.

Taqsimot jarayonlarining samaradorligini baholashda uchta asosiy yondashuv mavjud. Bular utilitarizm, egalitarizm va libertarianizm yondashuvlaridir.

Utilitarizmدا ijtimoiy farovonlik funksiyasi individual naflilik funksiyalari yig'indisi sifatida ifodalanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, jamiyat farovonligi

<sup>10</sup> Muallif ishlanmasi.

odamlarning yutuqlaridan iborat bo'ladi, davlat esa, yakuniy natijani maksimalashtirishga harakat qilishi lozim.

Libertarianizm vakillari daromadni jamiyat emas, uning a'zolari olishlarini ta'kidlaydilar. Ushbu nazariyaga muvofiq davlat daromadlarni adolatli taqsimlash uchun odamlardan biron-bir narsani boshqalar foydasiga olib qo'yishga haqli emas. Libertariantlar nuqtayi nazaridan davlat faqat Pareto mezoniga javob beradigan o'zgarishlarga ko'maklashishi shart. Majburiy qayta taqsimlashni umuman qo'llab bo'lmaydi<sup>11</sup>.

Bunga qarama-qarshi hisoblangan egalitarizm yondashuvi esa, tenglik ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ular asosan, jamoa g'oyalarini targ'ib etadi. Jamoaviy yondashuv nuqtayi nazaridan jamiyat farovonligi bu libertaristlardagi alohida shaxslarning farovonligi ham, utilitarizm nazariyasi singari individual naflilik yig'indisi ham emas. Bu jamiyatning oliy manfaatlariga javob beradigan shunday ne'matki, unda jamiyat yaxlit organizm kabi faoliyat yuritadi, odamlar esa, uning a'zolari vazifalarini bajaradilar. Bunda daromadlar tengsizligi sharoitiga unchalik mos kelmaydigan birdamlik va hamjihatlik his-tuyg'usi shaxsiy yutuqlar va odamlarning erkinligiga qaraganda yuqoriroq baholanadi. Egalitaristlar davlat tomonidan daromadlarni tenglashtirish faoliyati tarafdorlari bo'lganlar<sup>12</sup>.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yalpi talab o'sganda importga keyingi qo'shilgan moyillik oshadi. Ammo, raqobatbardosh sanoati mavjud bo'lmagan MDH mamlakatlarining aksariyati, ayniqsa, O'zbekistonda yalpi talab o'sishi natijasida hosil bo'ladigan daromadlarning importga sarf qilinishi xavfi hanuzgacha saqlanib qolmoqda.

Shuning uchun, muallif fikricha, iqtisodiyot subyektlarining daromad darajasiga qarab ularning qaysi qismi milliy mahsulotni oxirigacha iste'mol qilmaslikka moyilligi va shunga mos ravishda mablag'larni mamlakat iqtisodiyotiga optimal qaytarish uchun yaratilgan tovar va xizmatlarning qanchasini qayta taqsimlash kerakligini aniqlash lozim. Buning uchun amaliyotga daromadlar qayta taqsimlanadigan qismining multiplikatori tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq. Unga asos sifatida muvozanatlashtirilgan byudjet multiplikatorini olish va ushbu jarayonni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M = 1/(s+m) - (1 - (s+m))/(s+m) \quad (1)^{13}$$

Bu yerda:  $s$  – jamg'armalarga keyingi qo'shilgan moyillik,  $m$  – importga keyingi qo'shilgan moyillik. Ularning qiymati 1 ga teng bo'ladi, ya'ni daromadlarning o'sishi davlat xarajatlari va soliqlarning o'zgarishiga tengdir. Ushbu tenglamaning ikkinchi qismida soliq multiplikatori ifodalangan bo'lib, uning qiymati oddiy multiplikatordan kichikroq bo'ladi. Chunki, davlat mablag'larni jamg'armasdan iqtisodiyotga yo'naltiradi. Mazkur modelda multiplikator qiymati ham salbiy, ham ijobiy bo'lishi mumkin, ya'ni, agar soliq

<sup>11</sup> Ronald Hamowy The Encyclopedia of Libertarianism // The London. 1937 // <https://books.google.co.uz/books?id=yxNgXs3TkJYC&printsec=frontcover&hl=ru#v=onepage&q&f=false>

<sup>12</sup> Якобсон Л.И. Экономика общественного сектора основы теории государственных финансов. -М.: Финстатинформ. 1995. -с.23.

<sup>13</sup> Muallif ishlanmasi.

to'lovchilarda qoldirilgan mablag' ularni boshqalarga qayta taqsimlashga qaraganda kattaroq akseleratorga ega bo'lsa, unda qayta taqsimot natijasida YaIM kamayadi. Yopiq iqtisodiyotda bunday farq odatda nolga teng bo'ladi, ammo ochiq iqtisodiyot sharoitida akselerator qiymatini belgilaydigan ko'rsatkich – bu yalpi ichki mahsulotning iste'mol qilinmagan qismidir.

Jamg'armalar bo'yicha yana bir muhim konsepsiya M.Fridmen nazariyasida o'z ifodasini topgan. U o'lchanadigan daromad ( $Y$ ) va o'lchanadigan iste'mol ( $C$ ) doimiy va vaqtinchalik qismlardan iboratligini ta'kidlab o'tgan:

$$Y=Y_p+Y_t \quad (2)^{14}$$

$$C=C_p+C_t \quad (3)^{15}$$

M.Fridmen doimiy daromadni ( $Y_p$ ) iste'molchi uzoq vaqt davomida olishi kutilayotgan daromad sifatida belgilagan. Uning qiymati shu odamning iste'moli miqyosiga, to'plagan kapitali miqdoriga, shuningdek, yashash joyi, yoshi, kasbi, ma'lumoti, irqi va millatiga bog'liqdir. Vaqtinchalik yoki tasodifiy daromad esa ( $Y_t$ ) tasodiflar qatoriga kiritilgan barcha "boshqa" omillarning ta'sirini aks ettiradi, garchi ular ba'zida rejalashtirib bo'ladigan natijalar bo'lsa ham. Shu bilan birga, M.Fridmen o'z ilmiy tadqiqotlarida vaqtinchalik daromadning kutilmaganlik, tasodifiy xususiyatini ham ta'kidlab o'tadi. Unga ko'ra, tasodifiy daromad iste'molchilarning uzoq muddatli xatti-harakatlariga jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi, degan xulosani beradi.

Dissertatsiyaning "**Milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini tartibga solishning institutsional jihatlari**" deb nomlangan ikkinchi bobida taqsimot munosabatlarini tartibga solish institutlari va ularning amal qilish tamoyillari, ular faoliyatini tartibga solish usullari, taqsimot munosabatlarini takomillashtirishda institutsional omillardan samarali foydalanish yo'nalishlari tadqiq qilingan.

Taqsimot munosabatlarining samaradorligi mamlakatdagi institutsional muhit bilan bevosita bog'liq.

Taqsimot jarayonlariga institutsional omillar ta'sirini tahlil qilish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlardan xulosa qilib, muallif fikricha, taqsimlash mexanizmi shakllanishiga ta'siri jihatidan institutlarning uchta guruhini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi guruhga taqsimlash mexanizmi unsurlaridan biri hisoblangan ichki (lokal-tashkiliy) institutlar kiradi.

Ichki institutlar tarkibiga quyidagi uchta bir-biriga bog'liq bo'lgan yirik tizimlarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Mehnatga haq to'lash tizimi;
2. Rag'batlantirish tizimi;
3. Hisob yuritish tizimi.

Ushbu institutlar taqsimlash mexanizmining asosiy unsurlari hisoblanadi va uning samarali amal qilishini ta'minlaydi.

---

<sup>14</sup> Фридман М. Если бы деньги заговорили. Пер. с англ. - М.: Дело, 1999. - 149 с.

<sup>15</sup> O'sha manba.

Ikkinchi guruhga ko'rib chiqilayotgan taqsimlash mexanizmining muayyan bir qismi hisoblanmasada, uning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatuvchi institutlar kiradi. Ular qatoriga qonunchilik hujjatlari, yuqori turuvchi vazirlik, qo'mita va tashkilotlarning yo'riqnoma va ko'rsatmalari, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va yo'l xaritalari kabilar kiradi.

Uchinchi guruhga taqsimlash mexanizmining shakllanishiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi institutlarni kiritish mumkin. Ular quyidagilardan iborat:

faoliyat turining o'ziga xos jihatlari;

boshqaruv usullaridan foydalanish, boshqaruvni muvofiqlashtirish, shu jumladan, boshqaruv turlaridan birini tanlash borasidagi afzalliklar;

davlat idoralari bilan o'zaro hamkorlikning tavsifi va tartibga solishning o'ziga xosligi;

boshqa tashkilot va muassasalar bilan o'zaro hamkorlik tavsifi;

korxonalar maqsadlari va strategiyasi;

resurslarning taqqoslanma qiymatini baholash va shu kabilar.

Yuqoridagi omillar taqsimot jarayonlari samaradorligiga milliy xususiyatlarning ta'sir darajasini belgilab beradi. Bunda institutsional muhit nafaqat hududlar, balki, tarmoq bo'yicha ham farq qiladi.

Institutsional omilning taqsimot jarayonlariga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi.

1. Institutsional omillar taqsimlash munosabatlarini tartibga soluvchi institutlarning shakllanishida muhim o'rin tutadi.

2. Institutsional omillarning taqsimlash munosabatlari tizimining shakllanishiga ta'siri institutsional tartibga solish vositasida amalga oshiriladi.

3. Institutsional omillar rasmiy va norasmiy institutlarning umumiylikni ifoda etadi. Taqsimlash munosabatlarini tartibga soluvchi institutlar tarkibiga hisob tizimi, mehnatga haq to'lash tizimi, rag'batlantirish tizimi kiradi. Mazkur mexanizm tarkibiga kirmaydigan, ammo tizimning samarali faoliyat ko'rsatishiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatuvchi institutlar (qonunchilik, rasmiy qonunosti hujjatlar va boshqalar) ham mavjud. Shuningdek, tizimning shakllanishi va faoliyat ko'rsatishiga bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi institutlar (an'analar, urfodatlar, faoliyat yuritishning o'ziga xosligi va shu kabilar) ham farqlanadi. Institutlarning bunday tasniflanishi taqsimlash munosabatlarini institutsional jihatdan tartibga solish va ularning institutsional omillarga ta'siri tahlilini tizimlashtirish imkonini beradi.

4. Institutsional omillar ta'siriga bog'liq ravishda taqsimlash mexanizmi ham o'zgaradi, bu esa, o'z navbatida, taqsimlash mexanizmi unsurlarining rivojlanishi va muhimlik darajasining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi.

5. Institutsional omillarning rag'batlantirish tizimiga ta'siri rag'batlantirish kompleksining tarkibiy tuzilmasini shakllantirish (ijobiy va salbiy, tashqi va ichki motivlar nisbati) va uni tartibga solishda qo'llaniluvchi usullardan birini tanlashda namoyon bo'ladi.

Taqsimlash munosabatlarini tartibga solish usullari xususiyatlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, ko'p sonli ishtirokchilar qatnashadigan jarayonlar uchun bozor

usullari eng samarali hisoblanadi. Shuning uchun ham makrodarajada davlat tomonidan qo‘llanilishi lozim bo‘lgan bozor usullaridan foydalanish afzalroqdir.

Tartibga solish usullarining har biri o‘zining afzalliklari va kamchiliklariga ega (1-jadval).

### 1-jadval

#### Taqsimot munosabatlarini tartibga solish usullarining xususiyatlari<sup>16</sup>

Tartibga solish usullari	Rasmiy-shakllangan	Ma'muriy	Bozor
Mohiyati	Faoliyat standartlar orqali tartibga solinadi	Bevosita, operativ boshqaruvga asoslanganligi	Strategiyani amalga oshirish maqsadida faoliyat uchun shart-sharoitlar yaratadi, ammo bevosita boshqaruvni amalga oshirmaydi
Tartibga solishning optimal darajasi	Bitim xarajatlari bilan cheklangan	Psixologlarning fikriga ko‘ra, odam bir vaqtning o‘zida $7 \pm 2$ obyektini boshqaroladi	Frirayderlik xarajatlari bilan cheklanganligi
Afzalliklari	Boshqarish jarayonlarining obyektivligi, taqsimlash mexanizmining barqarorligi	Boshqaruv tizimining tezkorligi	O‘zini-o‘zi boshqarish imkoniyati
Taqsimlash mexanizmining amal qilishi uchun ketadigan xarajatlar	Yuqori darajada bo‘ladi va boshqaruv miqyosi kengayishi bilan asta-sekinlik bilan ko‘payadi	Past darajada bo‘ladi va boshqaruv miqyosi kengayishi bilan keskin ko‘payadi	Ko‘plab omillarga bog‘liq
Taqsimlash mexanizmini yaratishga ketadigan xarajatlar	Yuqori	Past	Tartibga solishning boshqa usullarini birgalikda qo‘llashga bog‘liq
Kamchiliklari	Ko‘zda tutilmagan vaziyatlarda samaradorlikni pastligi	Taqsimlash munosabatlari ishtirokchilari o‘rtasidagi ishonchga bo‘lgan yuqori ehtiyoj	Taqsimlash munosabatlaridagi ziddiyatlamani bartaraf etish uchun muvofiqlashtirishning boshqa shakllarini qo‘llash zarurligi

Yuqoridagi jadval ma’lumotlaridan hech qaysi bir tartibga solish usuli boshqa usullardan foydalanmasdan turib mavjud bo‘la olmaydi, degan xulosaga kelish mumkin. Bundan tashqari, ularning xususiyatlarini tahlil qilish zarurati shundan iboratki, tartibga solish usullarining birgalikda qo‘llanilishi ularning kamchiliklarini namoyon bo‘lishini kamaytirishi mumkin.

Taqsimot munosabatlarini tartibga solish usullarini muvofiqlashtirishning 3 ta yo‘nalishini ajratish mumkin:

boshqaruv darajalari bo‘yicha (qarorlar qabul qilish darajalarini ajratish, masalan, strategik va operativ);

vaqt omili bo‘yicha (byudjetni qabul qilish, operativ boshqarish, byudjet ijrosining tahlili);

muvofiqlashtirish shakllaridan qaysi biri ustuvorligini aniqlash.

<sup>16</sup> Muallif ishlanmasi.

Taqsimlash mexanizmining har xil elementlarida tartibga solish usullari turlicha namoyon bo‘lishi mumkin. Taqsimlash mexanizmi elementlarida tartibga solish usullarining namoyon bo‘lish turlari quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval

### Taqsimlash mexanizmi elementlarida tartibga solish usullarining qo‘llanilish belgilari<sup>17</sup>

Taqsimlash mexanizmi elementlari	Standartlar	Hukmronlik	Bozor
Ish haqi	Ish haqi darajasi egallab turgan lavozimga qarab tarif setkasi asosida belgilanadi	Ish haqi darajasi individual tarzda belgilanadi. Ba’zi hollarda tijorat siri ham bo‘lishi mumkin	Ish haqi darajasi ushbu soha mutaxassislari oyligining bozor darajasi asosida belgilanadi
Rag‘batlantirish tizimi	Ish haqi maosh to‘lash tizimida belgilanadi, mukofotlar beriladi	Norasmiy institutlar tomonidan tartibga solinadi	Natijaga muvofiq ish haqi to‘lash orqali ta’minlanadi
Ijtimoiy dastur	Hujjatlarda belgilanadi, masalan, jamoa shartnomasida	Norasmiy institutlar tomonidan tartibga solinadi	-
Resurslarni joylashtirish tizimi	Byudjetlashtirish tizimi orqali belgilanadi	Rahbar tomonidan belgilanadi	O‘tgan davr natijalariga qarab hamda daromad ta’minlanishi va garovning mavjudligi sharti bilan moliyaviy resurslarni jalb qilish
Hisob tizimi	Hisob standartlari, hisob siyosati	-	Mulk bozor qiymati asosida baholanadi

Ustunlik qilayotgan tartibga solish usuli asosiy hal qiluvchi omil hisoblanadi, taqsimlash munosabatlarini tartibga soluvchi institutlarning rivojlanish yo‘nalishlari unga bog‘liq bo‘ladi. Hukmronlik asosida tartibga solish ustunlik qilganida, institutlar rahbarga bog‘liq ravishda ko‘proq boshqariladigan tomonga qarab o‘zgaradilar. Standartlarga asoslangan tartibga solish ustunligida esa, aksincha, taqsimlash asosan standartlar bilan belgilanadi.

Dissertatsiyaning **“Taqsimot munosabatlarini tartibga solish vositalari va ularni amalga oshirish mexanizmi”** deb nomlangan uchinchi bobida daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarini tartibga solishning fiskal vositalari, respublikada taqsimot jarayonlari samaradorligiga soliqlar ta’siri va ularning o‘zgarish tendensiyalari, shuningdek, daromadlarni qayta taqsimlashning soliqsiz mexanizmini takomillashtirish yo‘nalishlari yoritilgan.

Mazkur ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi milliy daromadning taqsimlanishida davlat byudjetining shakllanishi, taqsimlanishi va qayta taqsimlanishi bo‘lganligi sababli, asosiy e’tiborni ushbu jarayonlarda birlamchi ahamiyatga ega bo‘lgan solikli va soliqsiz daromadlarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga tasirini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

Tahlillar respublikada davlat byudjeti daromadlari shakllanishida barcha soliq turlarining o‘rni va roli sezilarli ekanligini ko‘rsatdi (3-jadval).

<sup>17</sup> Muallif ishlanmasi.

### 3-jadval

#### 2017–2022-yillarda davlat byudjeti daromadlarining shakllanishi<sup>18</sup> (mlrd so‘m)

	2017 y		2018 y		2019 y		2020 y		2021 y		2022 y		2022-yilda 2017-yilga nisbatan o‘zgarish (baravar)
	summa	salmog‘i	summa	salmog‘i	summa	salmog‘i	summa	salmog‘i	summa	salmog‘i	summa	salmog‘i	
Davlat byudjeti daromatlari	49681,1		67481,6		112165,40		132938,0		164799,0		202043,0		4
<i>shu jumladan:</i>													
Bevosita soliqlar-jami	11539,4	23	18422,4	27	31676,8	28	45207	34	589302	35	644473	32	5,6
Bilvosita soliqlar-jami	261333	55	32256,2	48	46427,7	41	46428	34	56290	34	713902	35	2,7
Resurs va mol-mulk solig‘i	6867,4	14	9582,4	14	19680,7	17	21257	16	23036,1	14	23913,1	11	3,5
Boshqa daromadlar va soliq bo‘lmagan tushumlar	3725,9	73	7220,5	10	14272,8	12	200462	15	265423	16	42293,1	21	11,4

3-jadval ma’lumotlarida oxirgi uch yilda bilvosita soliqlarning ulushi (2022-yilda – 35,4 %) davlat byudjeti daromatlari tarkibida 2017-yildan boshlab jiddiy qisqarganligini ko‘rsatadi. Buning asosiy sabablari QQS stavkasining 20 %dan 15 %gacha pasaytirilishi, QQSni hisobga olish va qoplashning to‘laqonli tizimining joriy qilinishi, importga aksiz solig‘i bo‘yicha nol darajali stavkalarining joriy etilishi hisoblanadi. Bevosita soliqlarning ulushi esa, o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan (2022-yilda – 35,8 %). Buning asosiy sabablari bo‘lib “NKMK” AJ va “OKMK” AJ bo‘yicha byudjetga tushumning oshishi (qimmatbaho va rangli metallarga jahon narxining va realizatsiyaning o‘shishi hisobiga), foyda solig‘i stavkasining 14 %dan 15 %gacha ko‘tarilishi hisoblanadi. Resurs soliqlarining ulushi esa, pasayish tendensiyasiga ega bo‘lgan (2022-yilda – 14 %). Bunga sabab yer qa‘ridan foydalanganlik uchun va yuridik shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi. Boshqa daromadlar o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lgan (2022-yilda – 16 %). Bunga “NKMK” AJ va “OKMK” AJdan dividendlar bo‘yicha byudjetga tushumning oshishi ta’sir qilgan.

Daromadlarni qayta taqsimlash samaradorligini oshirish va shu orqali “Yashirin iqtisodiyot”ning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga salbiy ta’sirini kamaytirishda davlatning fiskal vositalari juda muhim rol o‘ynaydi. Respublikada bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan, hozirgacha xufyona iqtisodiyotning ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Tahlillar respublikada yashirin iqtisodiyotning ulushi 40 foiz bo‘lib, taxminan 32 mlrd. dollarga

<sup>18</sup> O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti daromadlarining ijrosi bo‘yicha dastlabki natijalar // O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisoboti // [https://imv.uz/media/document\\_files/dast\\_natija\\_1pol\\_2022.pdf](https://imv.uz/media/document_files/dast_natija_1pol_2022.pdf); Abdullayev J. “Soliq tizimi: muammolar va istiqbollari” [https://www.norma.uz/uz/raznoe/soliq\\_tizimi\\_muammolar\\_va\\_istiqbollari](https://www.norma.uz/uz/raznoe/soliq_tizimi_muammolar_va_istiqbollari)

baholanganligini ko'rsatdi.<sup>19</sup> Buning asosiy sabablaridan biri bo'lib, iqtisodiyotning yashirin sektorida ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar chakana savdosida yetarlicha nazorat va hisob-kitob tizimining mavjud emasligidadir. Shuningdek, yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlashda uy xo'jaligi sektori, ya'ni jismoniy shaxslarning manfaatdorligini rag'batlashtirish mexanizmining ishlab chiqilmaganligi ham mazkur muammoning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Muallif fikricha, yuqoridagi muammoni bartaraf qilishda davlatning daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmini jismoniy shaxslarga ular tomonidan amalga oshirilgan xarid summasining bir qismini respublika byudjeti daromadlari qismida qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarishga mo'ljallangan mablag'lar hisobidan qaytarib berish tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq. Buning uchun chakana savdo, umumiy ovqatlanish va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarida xaridni amalga oshirgan fuqarolarga xarid summasining bir qismini respublika byudjetidan qaytarib berish zarur.

Qayta taqsimot jarayonlarida soliqsiz daromadlar ham muhim o'rin egallaydi. Ko'pgina soliqsiz daromadlar fiskal, ya'ni doimiy xususiyatga ega emas va ularning qat'iy belgilangan stavkasi yo'q.

Byudjetga to'lanayotgan turli soliqsiz to'lovlarning eng katta salmoqqa ega bo'lgani – davlat ulushiga hisoblangan dividendlar va davlat korxonalarining sof foydasidan ajratmalardir (4-jadval).

#### 4-jadval

##### Soliqsiz to'lovlar tushumlari (mlrd.so'm)<sup>20</sup>

Yo'nalishlar	2017	2018	2019	2020	2021	2022	O'zgarish
Soliqsiz to'lovlar, jami	3 282,0	7 102,8	12 170,0	16 856,0	24 974,6	32684,1	9,9
<i>jumladan:</i>							
Davlat ulushiga hisoblangan dividendlar va davlat korxonalarining sof foydasidan ajratmalar	2138,2	1482,8	2 662,1	9 832,0	14 016,7	18624,7	8,7
Byudjet ssudalari bo'yicha foizlar	124,6	775,1	1 767,8	1 326,8	1 386,8	1428,2	11,4
Davlat boji	833,6	983,9	1 260,9	1 225,8	2 180,5	2974,6	3,6
Yig'implar (jumladan, bojxona yig'implari)	537,5	810,2	1 367,8	1 215,5	2 068,8	3028,4	5,6
Jarimalar	634,2	532,4	653,6	804,1	1 152,7	1643,2	2,6
Davlat mulkini ijarasi uchun to'lovlar	23,6	32,1	40,0	27,2	51,6	78,4	3,3
Boshqa to'lovlar	914,8	3 820,4	4 417,8	2 424,8	4 117,6	4906,6	5,4

2017-yilda atigi 214 mlrd.so'm tushum shakllantirilgan bo'lsa, 2022-yilda qariyb 19 trln.so'mga yetgan. Bunda oltin qazib chiqaruvchi korxonalardan dividendlar olish tizimining o'zgarishidan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risidagi Qonunlarda dividend siyosatining kuchaytirilishi ham sabab

<sup>19</sup> O'zbekistonda yashirin iqtisodiyot ulushi 32 mlrd dollarga baholanmoqda // <https://kun.uz/news/2023/10/03/ozbekistonda-yashirin-iqtisodiyot-ulushi-32-mlrd-dollar-ga-baholanmoqda>

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi soliq qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi // <https://soliq.uz/page/asosiy-korsatkichlar>.

bo'lmoqda<sup>21</sup>.

Bojxona bojlari va yig'implari ham soliqsiz to'lovlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning tushumlari esa, eksport-import hajmi bilan chambarchas bog'liq va tushumlarini shu dinamikada ko'rish maqsadga muvofiq.

Tahlillar respublikada jismoniy shaxslar tomonidan ko'chmas va ko'char mulkni rasmiylashtirishda undiriladigan davlat bojlari va to'lovlar o'rtasida katta tafovutlar mavjudligini ko'rsatdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi Qonunga muvofiq mol-mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq shartnomalarni tasdiqlashda notarial harakatlarni amalga oshirganlik ko'chmas mulk uchun umumiy maydoniga qarab quyidagi miqdorlarda davlat boji undiriladi:

Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida joylashgan bo'lsa:

100 kv.m. gacha bo'lganda – BHMning 1 baravari;

100 kv.m. dan 200 kv.m.gacha bo'lganda – BHMning 2 baravari;

200 kv.m. va undan ortiq bo'lganda – BHMning 3 baravari.

Boshqa aholi punktlarida joylashgan bo'lsa:

100 kv.m. gacha bo'lganda – BHMning 50 foizi;

100 kv.m. dan 200 kv.m.gacha bo'lganda – BHMning 1 baravari;

200 kv.m. va undan ortiq bo'lganda – BHMning 1,5 baravari<sup>22</sup>.

Avtomototransport vositalarini boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarini tasdiqlaganlik uchun ishlab chiqarilgan sanasi va ot kuchiga qarab yengil avtomobillar uchun quvvati 110 ot kuchigacha bo'lsa, o'rtacha (Chevrolet Nexia-3 misolida) 1 620,0 ming so'm davlat boji va 3 118,5 ming so'm yig'im (yoki jami 4 738,5 ming so'm to'lov), quvvati 110 ot kuchidan yuqori bo'lsa, o'rtacha (Chevrolet Tracker misolida) 2 700,0 ming so'm davlat boji va 3 653,1 ming so'm yig'im (yoki jami 6 353,1 ming so'm to'lov) undiriladi. Bunda, Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida joylashgan umumiy maydoni 100 kv.m.gacha bo'lgan ko'chmas mulk uchun (o'rtacha bozor bahosi 350-400 mln so'm) 270,0 ming so'm davlat boji ko'chmas mulk obyektiga bo'lgan huquqlar va ular bo'yicha tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun (BHMning 1,25 baravari) 337,5 ming so'm (yoki jami 607,5 ming so'm to'lov) undiriladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jismoniy shaxsga tegishli bo'lgan umumiy maydoni 100 kv.m.gacha (umumiy maydoni 70 kv.m. bo'lgan uy-joy misolida) qiymati o'rta hisobda 350-400,0 mln so'm bo'lgan ko'chmas mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar 607,5 ming so'm, qiymati o'rta hisobda 90-100,0 mln so'm bo'lgan (Chevrolet Nexia-3 misolida) ko'char mulkni boshqa shaxsga o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar 4 738,5 ming so'm yoki 8 barobar ko'p to'lov undiriladi (notariuslarning pullik xizmatlaridan tashqari). Ya'ni, jismoniy shaxsga tegishli 2 turdagi mulklardan birining bozor qiymati (avtotransport) boshqasiga (uy-joy) nisbatan 4 barobar past bo'lsada, bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishda (boj va yig'im) 8 barobar ko'p to'lov undirilmoqda.

<sup>21</sup> Jumaniyazov, I.T. (2021). The Progressive Foreign Experiments in the Activity of Sovereign Wealth Funds. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 109- 116.

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni loyihasi va 2022-yil uchun Byudjetnoma bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosasi. –T.: 2021. -23 b.

Natijada, fuqarolar oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirish o'rniga, ishonchnomalarni rasmiylashtirish orqali avtotransport vositalarini boshqarish va mulk sifatida tasarruf etib, keyinchalik mulkiy munosabatlarda ayrim hollarda o'zaro nizolarni kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Muallif fikricha, mazkur muammoni ijobiy hal qilish uchun fuqarolarga mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlarini yengillashtirish va mulk huquqini to'laqonli tasarruf etishga qulay sharoitlarni yaratish maqsadida jismoniy shaxslar uchun ko'chmas va ko'char mulkni rasmiylashtirishda undiriladigan davlat bojlari va yig'imlar miqdorini (mulklarni qiymatiga mutanosib ravishda) qayta ko'rib chiqish (unifikatsiya qilish) maqsadga muvofiq.

Dissertatsiyaning **“O'zbekistonda daromadlarni qayta taqsimlash yo'nalishlari va uning o'zgarish tendensiyalari”** deb nomlangan to'rtinchi bobida daromadlarni qayta taqsimlash jarayonida iqtisodiyotning tarmoq va sohalarni moliyalashtirish usullari, yo'nalishlari va darajasi tahlil qilingan. Shuningdek, taqsimot jarayoni samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar, ular o'rtasidagi korrelyatsion-regression bog'liqlikning ekonometrik modelini ishlab chiqish asosida daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida shakllanadigan aholi daromadlarini oshirishning 2030-yilgacha bo'lgan prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Daromadlarni qayta taqsimlash jarayonida tarmoq va sohalarni moliyalashtirishda qo'llaniladigan usullar quyidagilardan iborat:

smetalar orqali moliyalashtirish;

dasturiy moliyalashtirish;

mahsulot (xizmatlar) narxi hisobidan ta'minlanmagan xarajatlarning bir qismini qoplash orqali moliyalashtirish;

kapital qo'yimalarni moliyalashtirish.

Taqsimot jarayonida amaliyotda smetalar orqali moliyalashtirish usuli keng tarqalgan. Bu usul ta'lim, madaniyat, san'at, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va ijtimoiy ta'minotni davlat tomonidan moliyalashtirish sohasida keng qo'llaniladi. Smetalar orqali moliyalashtirishda xarajatlar miqdori har bir byudjet muassasasi uchun ishlab chiqilgan o'zaro bog'liq smetalar asosida aniqlanadi.

Dasturiy moliyalashtirish usuli turli davlat dasturlarini moliyalashtirishda keng qo'llaniladi. Ushbu usulga muvofiq ajratilgan mablag'larning umumiy miqdori tuzilgan smeta asosida emas, balki muayyan davlat tomonidan qabul qilingan dastur ahamiyatiga qarab belgilanadi. Dasturga kiritilgan har bir loyiha bo'yicha mablag'larning umumiy miqdori to'g'ridan-to'g'ri uni bajaruvchi muassasalar – vazirliklar, qo'mita idoralar, ta'lim muassasalari va boshqalarga ajratiladi, bu esa, o'z navbatida, umumiy miqdor hajmidan kelib chiqib, aniq xarajatlar smetasini tashkil qiladi.

Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalarga nisbatan qoplanishi mahsulot (xizmatlar) narxi bilan ta'minlanmagan xarajatlarning bir qismini qoplash uchun moliyalashtirish usuli keng qo'llaniladi. Bular teatrlar, kinoteatrlar, san'at galereyalari, metropoliten, avtobus yoki tramvay parki va boshqalardan iborat. Ushbu muassasalar alohida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, ularning xizmatlari narxini

barcha xarajatlarni qoplash imkonini beradigan darajada belgilab bo'lmaydi. Shuning uchun davlat ularning faoliyatini byudjetdan subsidiyalaydi. Ushbu subsidiyalar miqdori yuzaga keladigan daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi real farqdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Kapital qo'yimlarni moliyalashtirish – ishlab chiqarish va noishlab chiqarish maqsadlarida yangi asosiy fondlarni yaratish, kengaytirish, rekonstruksiya qilish, mavjud asosiy fondlarni texnik jihatdan qayta jihozlash uchun mablag'lar bilan ta'minlashni nazarda tutadi. Kapital qo'yimlarni moliyalashtirishda mablag'lar hukumat tomonidan tasdiqlangan qurilish loyihalarining maxsus ro'yxatiga kiritilgan (manzilli loyihalar ro'yxati) cheklangan doiradagi obyektlarga ajratiladi.

Mazkur tadqiqot ishida iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini har tomonlama baholash va retrospektiv tahlilini amalga oshirish maqsadida 2000–2022-yillar kesimida YaIM o'sishi, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sishi (*AKI*), soliq yuki (*SYu*) (o'tgan yilga nisbatan o'sishi), byudjet holati (*BH*) (defitsit/profitsit), aholi jon boshiga umumiy daromadlarning (*AD*) o'sishi (o'tgan yilga nisbatan o'sishi) ma'lumotlari jamlandi va ular o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi (5-jadval).

## 5-jadval

### O'zbekistonda YaIM, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, soliq yuki, byudjet holati va aholi o'rtacha daromadining o'zgarish tendensiyalari, %da<sup>23</sup>

Yillar	YaIM	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	Soliq yuki (o'tgan yilga nisbatan o'sish)	Byudjet holati (defitsit/profitsit)	Aholining o'rtacha daromadi (o'tgan yilga nisbatan o'sish)
2000	103,8	101,0	39,5	-1,0	155,8
2001	104,2	104,0	38,7	-1,0	149,8
2002	104,0	103,6	34,1	-0,8	142,4
2003	104,2	104,8	26,4	-0,4	123,4
2004	107,4	107,3	23,7	-0,4	117,3
2005	107,0	105,7	22,6	0,1	124,8
2006	107,5	109,3	22,1	0,5	131,5
2007	109,5	125,8	22,4	1,1	128,4
2008	109,0	134,1	23,1	1,5	133,5
2009	108,1	124,8	21,7	0,2	132,5
2010	107,1	104,2	22,0	0,3	129,2
2011	107,5	102,6	22,1	0,4	133,6
2012	107,1	110,6	19,4	0,4	119,6
2013	107,3	111,3	21,7	0,3	119,2
2014	106,9	109,8	21,3	0,2	114,0
2015	107,2	109,4	20,5	0,1	113,7
2016	105,9	104,1	20,2	0,1	114,9
2017	104,4	119,4	20,0	1	117,7
2018	105,4	129,9	16,2	0,1	124,8
2019	105,7	138,1	18,3	-1,5	119,3
2020	101,7	95,6	18,6	-4,5	111,3
2021	107,4	102,1	18,7	-5,6	122,7
2022	105,7	100,2	17,9	-4,0	119,8

<sup>23</sup> <http://stat.uz/press-sluzhba/novosti-gks/1451-makroiqtisodiy-ko'rsatkichlari-tahlili>.

Keyingi 20 yil ichida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o'sishi nostatsionar o'zgarishlarga ega bo'lib, 2020-yilda eng kam o'sish kuzatilgan, ya'ni 13,5 foizlik o'sish yigirma yillik o'rtacha o'sishdan eng quyi holda qayd etilgan.


Byudjet holati ham so'nggi yillarda defitsit bilan yakunlanib, bu jarayonning uzoq davom etishi aholining kelajakdagi daromadiga teskari ta'sir qilgan (6-jadval).

**6-jadval**

**Ko'rsatkichlarning tasviriy statistikasi<sup>24</sup>**

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
YaIM	23	106.2609	1.868334	101.7	109.5
AKI	23	111.2043	11.66356	95.6	138.1
Syu	23	23.09565	6.147614	16.2	39.5
BH	23	-.5608696	1.795383	-5.6	1.5
AD	23	128.1609	11.54984	113.5	157.9

Soliq yuki (*SYu*)ning 2000–2022-yillardagi dinamikasi pasayish tendensiyasiga egaligi kuzatilgan. Davlat tomonidan aholi va korxonalarining doimiy qo'llab-quvvatlanishi soliq yukining kamayganligi bilan izohlanadi (2-rasm).



**2-rasm. Ko'rsatkichlarning 2000–2022-yillardagi dinamik o'zgarishi<sup>25</sup>**

2000–2022-yillar kesimidagi dinamik o'zgarishlarni kuzatish natijasida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o'sishi, asosiy kapitalga investitsiyalar hamda yalpi ichki mahsulot o'sishi o'rtasida uzoq muddatli bog'lanish borligini aniqlash

<sup>24</sup> Ushbu jadval muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

<sup>25</sup> Ushbu rasm muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan



### Aholi daromadlarining birlik ildiz qiymati bo'yicha *Dickey-Fuller* testi<sup>26</sup>


Dickey-Fuller test for unit root

Number of obs = 22

	Interpolated Dickey-Fuller			
	Test Statistic	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
Z(t)	-3.020	-3.750	-3.000	-2.630

MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.0330

Yuqoridagi test natijalaridan ko'rinib turibdiki,  $p\text{-value} < 0,05$  bo'lganligi, test qiymati (*Test Statistic*) manfiy ishoraga ega ekanligi, shuningdek, ushbu qiymat boshqa qiymatlar (*critical value*)dan kichik ekanligi vaqtli qatorni statsionar ekanligidan dalolat beradi.



**3-rasm. Vaqtli qator bo'yicha avtokorrelyatsiya<sup>27</sup>**

3-rasm ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkinki, differensiallangan vaqtli qator faqat avtokorrelyatsiyaga ega emas. Ya'ni, birgina lag ishonch oralig'idan tashqarida joylashgan.

YaIM qiymati statsionar ekanligining ehtimollik qiymati 0,06 dan kichik ekanligi, test qiymati manfiy va 10%i ishonch oralig'idan kichikligi bilan izohlanadi.

Tanlab olingan to'rtta omil belgini eng kichik kvadratlar usuli orqali natijaviy belgi bilan aloqadorligi statistik ahamiyatga ega emasligi,  $F$  test va  $T$  test qiymatlari katta ekanligi aniqlandi, faqatgina soliq yuki bilan eng kichik kvadratlar usuli ishlab chiqildi (8-jadval).

<sup>26</sup> Ushbu jadval muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

<sup>27</sup> Ushbu rasm muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

Soliq yuki va aholi daromadlari bog‘lanishi<sup>28</sup>

Linear regression							
Inad	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Insyu	.297	.052	5.75	0	.19	.405	***
Constant	3.924	.161	24.34	0	3.589	4.26	***
Mean dependent var		4.850	SD dependent var				0.087
R-squared		0.612	Number of obs				23
F-test		33.083	Prob > F				0.000
Akaike crit. (AIC)		-65.906	Bayesian crit. (BIC)				-63.635


\*\*\*  $p < .01$ , \*\*  $p < .05$ , \*  $p < .1$

8-jadvalda olingan natija tahlili shuni ko‘rsatadiki, regression modelda determinatsiya koeffitsiyenti  $R^2 = 0,61$ ,  $F_{hisob} = 33.08$  bo‘lganda,  $F_{jad} = 2,17$  ga teng. *Styudent* mezonini bo‘yicha har bir koeffitsiyentni taqqoslaganda jadval qiymatidan hisobiy qiymatlari katta ekanligi aniqlandi.

Tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik modelning statistik ahamiyatligi va o‘rganilayotgan jarayonga mos kelishini aniqlash uchun Fisherning  $F$ -mezonidan foydalanildi va uning haqiqiy qiymati quyidagi formula yordamida hisoblandi.

$F$  – mezonning haqiqiy qiymati  $F_{hisob} = 33$  ga teng. Agar haqiqiy qiymat jadvaldagi qiymatdan katta bo‘lsa, u holda tuzilgan ko‘p omilli ekonometrik model statistik ahamiyatli yoki o‘rganilayotgan jarayonga adekvat bo‘ladi.

Geteroskandastlik uchun bir qator testlar mavjud bo‘lib, *Brosh Pagan* testi orqali hisoblanganda, uning ehtimollik darajasi 0,05 dan kichik bo‘lsa, bosh gipoteza qabul qilinib, alternativ gipoteza rad qilinadi va Model qoldiqlari mos qiymatlar bilan bog‘lanmaganligi ifodalanadi (4-rasm).



4-rasm. Cusum testi qiymati<sup>29</sup>

<sup>28</sup> Ushbu jadval muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

<sup>29</sup> Ushbu rasm muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

Yuqoridagi test natijalaridan kelib chiqib quyidagi regression model adekvat deb tanlab olindi:

$$\ln AD = 3.92 + 0.29 \ln Syu; \quad (9)$$

Model koeffitsiyenti *BLUE* bo‘lib, *F* test, *T* test va Gaus Markovning barcha shartlari bo‘yicha ham statistik ahamiyatga ega ekan. Akayke va Shvars mezonlari esa, modelning optimal ekanligini ifodalaydi. *BETA* koeffitsiyent 0,29 ga teng.

Soliq yukining ortishi boshqa ko‘rsatkichlarga qaraganda aholi daromadlarining ortishiga to‘g‘ri va kuchli ta‘sir etar ekan. Soliq yukining bir foizga ortishi aholi jon boshiga umumiy daromadlarning o‘sishi 0,29 foizga ortishiga olib kelar ekan.

Bu xulosamizdan to‘g‘ri qaror qabul qilish uchun davlat, avvalambor, milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini tartibga solishda soliq yukini takomillashtirilishi, tabaqalashgan soliq joriy etilishi nazarda tutilmoqda.

## 9-jadval


### Milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini maximum likelihood metodi asosida modellashtirish<sup>30</sup>

		OIM				
	Coef.	Std.Err.	z	P>z	[95%Conf.	Interval]
Structural						
lnaki <-						
lnyaim	2.458	1.069	2.300	0.022	0.362	4.553
_cons	-6.760	4.989	-1.360	0.005	3.538	16.018
lnad <-						
lnaki	0.248	0.132	1.880	0.059	0.010	0.506
BH	-0.006	0.007	-0.850	0.007	0.020	0.008
lnsyu	0.337	0.051	6.560	0.000	0.237	0.438
_cons	2.628	0.706	3.720	0.000	1.244	4.012
BH <-						
lnsyu	1.157	1.620	0.710	0.005	2.018	4.333
_cons	-4.162	5.055	-0.820	0.010	5.071	14.746
var(e.lnaki)	0.008	0.002	0.004	0.014		
var(e.lnad)	0.002	0.001	0.001	0.004		
var(e.BH)	3.016	0.889	1.692	5.376		

LR test of model vs. saturated: chi2(4) = 14.55, Prob > chi2 = 0.0057

*Maximum likelihood* metodi asosida modellashtirishda *SEM* modelidan foydalanib, quyidagi gipoteza shakllantirildi (5-rasm).

<sup>30</sup> Ushbu jadval muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan



**5-rasm. Milliy iqtisodiyotda taqsimot munosabatlarini modellashtirish<sup>31</sup>**

Soliq yuki aholi daromadiga to‘g‘ri ta‘sir etishidan ko‘ra, bilvosita aloqasi kuchli ekan. 5-rasmdan soliq yukining bir foizga ortishi aholi jon boshiga umumiy daromadlarning 0,34 foizga ortishiga, byudjet profitsitining 1,2 % ko‘payishiga olib kelishi aniqlandi.

Bunga asosan asosiy kapitalga investitsiyalar yalpi ichki mahsulotning ko‘payishi xizmat qilib, natijada aholi jon boshiga umumiy daromadlarning 0,25 foizga ortishiga sabab bo‘ladi.

Yalpi ichki mahsulot (*YaIM*) va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o‘sishi (*AKI*), soliq yuki (*SYu*) (o‘tgan yilga nisbatan o‘sishi), byudjet holati (*BH*) (defitsit/profitsit), ma‘lumotlari bo‘yicha ishlab chiqilgan modellarning koeffitsiyentlari asosida 2030-yilgacha aholining daromadlari prognoz qiymatlari aniqlandi (10-jadval).

**10-jadval**

**O‘zbekiston Respublikasida 2023–2030-yillarda aholi daromadlarining prognoz qiymatlari<sup>32</sup>**

Yil	Aholi jon boshiga umumiy daromadlari, ming so‘m	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlari, ming so‘m	Aholi jon boshiga real umumiy daromadlarning o‘sishi, %
<i>Joriy holat</i>			
2022	17807.3	15979.3	107.5
<i>Prognoz</i>			
2023	19260,4	18220,6	107,910
2024	23133,9	20736,8	107,836
2025	26951,5	23471,4	112,051
2026	29945,2	25078,2	111,897
2027	31642,6	29722,3	116,192
2028	34756,5	31419,6	115,957
2029	37333,7	35973,1	120,334
2030	41567,8	37761,0	120,018

<sup>31</sup> Ushbu rasm muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

<sup>32</sup> Ushbu jadval muallif hisob-kitoblari asosida tuzilgan

Model bo'yicha qamrab olingan ko'rsatkichlarning, ya'ni yalpi ichki mahsulot (*YaIM*) va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar o'sishi (*AKI*), soliq yuki (*SYu*) (o'tgan yilga nisbatan o'sishi), byudjet holati (*BH*) (defitsit/profitsit) barqarorligi saqlansa, 2030-yilga borib aholining jon boshiga umumiy daromadlari 41 mln so'mdan ortadi.

Dissertatsiya ishining beshinchi bobi "**Taqsimot munosabatlarini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari**" deb nomlangan bo'lib, unda asosan daromadlarni qayta taqsimlash jarayonida uy xo'jaligi sektorining faolligi hamda respublikada ochiq va tashabbusi byudjet amal qilishi samaradorligini oshirish yo'nalishlari kabi masalalar ko'rilgan.

O'tgan asrning 90-yillarida aksariyat rivojlangan davlatlarda daromadlarni qayta taqsimlash jarayonlarida uy xo'jaligi sektori, ya'ni fuqarolarning tashabbuslarini hisobga olgan holda byudjet mablag'larining muayyan bir qismini sarflash bo'yicha ularning bevosita ishtirokida qarorlar qabul qilish hamda uning ijrosini kuzatish imkonini beruvchi tashabbusli byudjetlashtirish amaliyoti keng tarqaldi.

O'zbekistonda daromadni qayta taqsimlash jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida tashabbusli byudjetlashtirish vositalari 2019-yildan tatbiq etilmoqda. 2021-yilda fuqarolarning tashabbuslari uchun ajratiladigan ushbu mablag' manbalari sezilarli darajada kengaytirildi va qo'shimcha daromadlarning 10 foizidan 30 foiziga yetkazildi. 2022-yildan boshlab barcha tumanlar (shaharlar)da ushbu maqsadlar uchun tasdiqlangan mahalliy byudjetlar xarajatining 5 foizi yo'naltirilmoqda.

Mamlakatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22-avgust 2018-yildagi PQ-3917-son "Byudjet ma'lumotlarining ochiqligini va byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida davlat byudjetini shakllantirish, davromadlarni qayta taqsimlash va uni samarali tashkil etish tizimi joriy etildi. 2019-yildan boshlab byudjet mablag'larini taqsimlashda tuman yoki shahar byudjetlarining qo'shimcha manbalarining kamida 10 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyihalarga yo'naltirilishi ko'zda tutildi.

Muallif fikricha, byudjet mablag'larini taqsimlashda tuman yoki shahar byudjetlari qo'shimcha manbalarining 10 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllangan loyihalarga yo'naltirish yuqori ijtimoiy-iqtisodiy samara bermaydi.

Shu sababli, respublikada daromadlarni qayta taqsimlash samaradorligini oshirishga tuman, shahar va viloyat byudjetlari qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq.

Tahlillar qishloq va tumanlar aholisining asosiy muammosi bu ichki infratuzulmani yaxshilash bo'lsa, shahar va viloyat markazlaridagi aholining katta qismi ijtimoiy soha obyektlari (maktablar, kasalxonalar va bolalar bog'chalari)ga katta e'tibor qaratilganligini ko'rsatdi.

Shuningdek, tadqiqotlar mamlakatning ayrim hududlarida tashabbusli byudjetni amalga oshirishda ba'zi kamchilik yoki qiyinchiliklar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, respublikada ovoz berish jarayoni "Ochiq byudjet" portali

orqali amalga oshirilib, bir kishi faqat bitta loyiha uchun ovoz berish imkoniga ega. Bunda ishtirokchining mintaqaviy, mahalliy yoki demografik joylashuvi nazorat qilinmaydi. Ishtirokchi fuqaroligi, hududi va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar, o'z mobil telefon raqami orqali portalda ro'yxatdan o'tish sharti bilan istagan tashabbusni tanlashi mumkin. Bu boshqa viloyat yoki tumandan bo'lgan shaxsga boshqa hudud tashabbusi bilan boshlangan loyihani qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shuningdek, bir ishtirokchida bir ortiq aloqa raqami mavjud bo'lsa, shuncha ovoz berishi mumkin. Bu tizim, o'z navbatida, tanish-bilishchilik, loyihalarni noxolis tanlash va noto'g'ri ishlaydigan institutlarni kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Ushbu dalilni inobatga olgan holda, tashabbusli byudjet bo'yicha yanada inklyuziv qonunchilikni qabul qilish taklif etiladi. Shuningdek, jamoatchilikni joydan turib (onsite) ishtirok etishiga imkon beradigan yangi mexanizm qabul qilinish maqsadga muvofiq.

Odatda eng ko'p ovoz to'plagan taklif g'olib, deb topiladi va byudjet mablag'lari faqat shu loyihalarga ajratiladi. Biroq, ijtimoiy xizmatlar sifati past bo'lgan chekka hududlar va kam sonli aholi vakillari tashabbuslari yetarlicha ovoz to'play olmasligi mumkin. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatdiki, tashabbusli byudjet tizimining yomon ishlashi iqtisodiyotning uy xo'jaligi sektorida odamlarning qiziqishi va ishonchini susaytiradi, chunki ular umidsizlikka tushib qoladilar.

Muallif fikricha, taqsimot jarayonlarida uy xo'jaligi sektorida odamlarning qiziqishi va ishonchini susaytirmaslik, aksincha, ularning faolligini oshirishga har bir yilga mo'ljallangan loyihalar paketi uchun ajratiladigan mablag'lar hajmini sezilarli darajada oshirish va ularning cheklangan miqdorini BHMning 30000 baravarigacha belgilash asosida rag'batlantirish orqali erishish maqsadga muvofiq.

Respublikada kelgusi yildan boshlab qayta taqsimlash jarayonini yanada takomillashtirish va unga aholini keng jalb qilish maqsadida jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalar ko'lamini kengaytirish nazarda tutilgan.

Muallif fikricha, respublikada "Tashabbusli byudjet" tizimi orqali qayta taqsimlash jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda amaldagi qonunchilikka muayyan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq. Jumladan:

1. Loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, ekspertiza xulosalarini olish va shu kabi boshqa xarajatlarni ham bevosita jamg'arma mablag'lari hisobidan amalga oshirish maqsadga muvofiq.

2. Tashabbusli byudjet jarayonidagi "g'olib"larni aniqlash mexanizmiga qo'shimcha ravishda loyihalarni g'olib, deb topilishi uchun 10 tadan kam bo'lmagan ovoz yig'ishi zarur.

3. Loyihalarni saralash bosqichida atroflicha o'rganilishi orqali keyinchalik amalga oshirishning texnik imkoni mavjud bo'lmagan loyihalarning g'olib, deb topilishi va kelgusida rad etilishining oldini olishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

4. Fuqarolar tomonidan loyihaning amalga oshirilishida har xil ko'rinishdagi aralashuvlarga (pudratchi korxonani aniqlash yoki ishlarni ularning o'zlari tomonidan amalga oshirilishi, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shu kabilar) yo'l qo'yilmaslik yuzasidan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish lozim.

5. Tashabbusli byudjet jarayoni ijrosi yuzasidan hududlar reytingini yuritib borish, erishilgan natijalar ko'rsatkichi "past" bo'lgan hududlarni aniqlash va ular bilan alohida ish tashkil etilishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunda baholash tizimi "0" balldan "100" ballgacha bo'lib, tuman va shaharlar tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari natijalariga ko'ra ularni "yashil", "sariq" va "qizil" toifalarga ajratish zarur.

Taqsimot jarayonlarining samaradorligini oshirishda iqtisodiyotning tadbirkorlik sektori ham juda katta ahamiyatga ega. Chunki, ular tomonidan mamlakatda YaIM yaratiladi, taqsimlanadi va davlat tomonidan o'sha sektorda shakllangan daromadlar qayta taqsimlanadi. Shu sababli ushbu sektorni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari so'nggi yillarda respublikada tadbirkorlikni rivojlantirishni kompleks qo'llab-quvvatlashning "uzluksiz zanjirini" yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilganligiga qaramasdan, o'rta biznesni davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmi yetarlicha darajada samarali ishlamaganligini ko'rsatdi.

Muallif fikricha, respublikada moliya bozorida resurslarning yuqori foiz stavkalari saqlanib qolayotgan sharoitda tadbirkorlik loyihalarini qayta taqsimot jarayonlarini takomillashtirish hisobiga moliyalashtirishning yangicha va muqobil instrumentlarini yaratish, xususan tadbirkorlik loyihalariga ulush kiritish va xizmatlar ipotekasini joriy etishga, kafillik yordamini taqdim etishni kengaytirishga ehtiyoj ortmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, taqsimot munosabatlarining rag'batlantiruvchi funksiyasini o'rta tadbirkorlik subyektlariga ko'chmas mulk va asbob-uskunalar hamda mol-mulkni sug'urta qilish uchun sarflanadigan xarajatlarning 70 foizini davlat tomonidan "xizmatlar ipotekasi"ni taqdim etish asosida qo'llab-quvvatlash orqali takomillashtirish zarur.

Qayta taqsimot jarayonlarining nafaqat iqtisodiy, shu bilan birga ijtimoiy samaradorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu asosan, mamlakatda kambag'allikni qisqartirish, aholining yordamga muhtoj qismini ijtimoiy himoya qilish, ishsizlikni kamaytirish kabi sohalarida o'z ifodasini topadi. Shu nuqtayi nazardan respublikada qayta taqsimot jarayonlarining ijtimoiy funksiyasini ham takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Bunda davlat ijtimoiy himoyaning asosan faol turini qo'llashi zarur.

Muallif fikricha, qayta taqsimot jarayonlarining ijtimoiy nafliligini respublikada ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga ular faoliyatida zarur bo'ladigan asosiy kapitalni xarid qilishda davlat tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining kamida 25 baravarigacha subsidiya berish tizimini joriy qilish orqali oshirish zarur. Mazkur tizimning ishlab chiqilishi natijasida respublikada byudjet daromadlarini samarali qayta taqsimlash orqali ishsiz va ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining samarali bandligini ta'minlash hamda ularning kambag'allikka tushib qolishining oldini olish imkoniyati yaratiladi.

## XULOSA

1. Taqsimot jarayoni bu – olingan daromadlarning (ham birlamchi, ham ikkilamchi) yangi taqsimoti bo‘lib, u jamiyatdagi ayrim guruh a‘zolari daromadlarining ko‘payishi boshqalarnikini kamayishi hisobiga amalga oshirilishini ko‘zda tutadigan iqtisodiy munosabatdir. Taqsimot jarayonlari faqatgina pul, tovar va xizmatlar bilan cheklanib qolmaydi, balki, shu bilan birga, iqtisodiy imkoniyat, resurslar va salohiyat ham qayta taqsimlanishi mumkin. Masalan, ish haqi, narx, bojxona to‘lovlari va boshqa iqtisodiy indikatorlarning davlat tomonidan tartibga solinishi natijasida jamiyatning ayrim a‘zolari afzallikka ega bo‘lsa, bunday taqsimot boshqalar uchun daromad olish imkoniyatini qisqartiradi.

2. “Taqsimot” va “Qayta taqsimot” iqtisodiy kategoriyalarining mohiyatini ochib berishda ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat) va daromad bilan takror ishlab chiqarish sikli hamda uning bosqichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqqan holda yondashish zarur.

3. Iqtisodiyot subyektlarining daromad darajasiga qarab ularning qaysi qismi milliy mahsulotni oxirigacha iste‘mol qilmaslikka moyilligi va shunga mos ravishda mablag‘larni mamlakat iqtisodiyotiga optimal qaytarish uchun yaratilgan tovar va xizmatlarning qanchasini qayta taqsimlash kerakligini aniqlash lozim. Buning uchun amaliyotga daromadlar qayta taqsimlanadigan qismining multiplikatori tushunchasini kiritish maqsadga muvofiq. Unga asos sifatida muvozanatlashtirilgan byudjet multiplikatorini olish zarur.

4. Taqsimlash mexanizmi shakllanishiga ta’siri jihatidan institutlarni uchta guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq. Birinchi guruhga taqsimlash mexanizmi unsurlaridan biri hisoblangan ichki (lokal-tashkiliy) institutlarni, ikkinchi guruhga aynan taqsimlash mexanizmining muayyan bir qismi hisoblanmasada, uning shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatuvchi institutlarni (qonunchilik hujjatlari, yuqori turuvchi vazirlik, qo‘mita va tashkilotlarning yo‘riqnoma va ko‘rsatmalari, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va yo‘l xaritalari kabilar), uchinchi guruhga taqsimlash mexanizmining shakllanishiga bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi institutlarni kiritish lozim.

5. Qayta taqsimot jarayonlari adolatliligini ta’minlashda fuqarolar uchun mulkiy munosabatlarni amalga oshirishda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonlarini yengillashtirish va mulk huquqini to‘laqonli tasarruf etishga qulay sharoitlarni yaratish, bunda jismoniy shaxslar uchun ko‘chmas va ko‘char mulkni rasmiylashtirishda undiriladigan davlat bojlari va yig‘imlar miqdorini mulklarning qiymatiga mutanosib ravishda qayta ko‘rib chiqish, ya’ni unifikatsiya qilish maqsadga muvofiq.

6. Respublikada “Tashabbusli byudjet” tizimi orqali qayta taqsimlash jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda amaldagi qonunchilikka quyidagi o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

tashabbusli byudjet jarayonidagi “g‘olib”larni aniqlash mexanizmiga qo‘shimcha ravishda loyihalarni g‘olib deb topilishi uchun 10 tadan kam bo‘lmagan ovoz yig‘ishi zarurligini belgilab qo‘yish;

fuqarolar tomonidan loyihaning amalga oshirilishida har xil ko‘rinishdagi aralashuvlarga (pudratchi korxonani aniqlash yoki ishlarni ularning o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi, loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish va shu kabilar) yo‘l qo‘yilmaslik yuzasidan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish;

tashabbusli byudjet jarayoni ijrosi yuzasidan hududlar reytingini yuritib borish, erishilgan natijalar ko‘rsatkichi “past” bo‘lgan hududlarni aniqlash va ular bilan alohida ish tashkil etilishini ta‘minlash maqsadga muvofiq. Bunda baholash tizimi “0” balldan “100” ballgacha bo‘lib, tuman va shaharlar tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari natijalariga ko‘ra ularni “yashil”, “sariq” va “qizil” toifalarga ajratish zarur.

7. Respublikada daromadlarni qayta taqsimlash samaradorligini oshirish uchun tuman, shahar va viloyat byudjetlari qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

8. Taqsimot jarayonlarida uy xo‘jaligi faolligini oshirishga har yilga mo‘ljallangan davlat dasturlarini tashabbusli byudjetlashtirish orqali shakllantirish va loyihalar paketi uchun ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorini BHMning 30000 baravarigacha belgilash asosida rag‘batlashtirish orqali erishishning iqtisodiy samaradorligi yuqori bo‘ladi.

9. Daromadlarni qayta taqsimlash mexanizmini jismoniy shaxslarga ular tomonidan amalga oshirilgan xarid summasining bir qismini respublika byudjeti daromadlari qismida qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarishga mo‘ljallangan mablag‘lar hisobidan qaytarib berish tizimini joriy qilish orqali takomillashtirish zarur.

10. Taqsimot munosabatlarining rag‘batlantiruvchi funksiyasini o‘rta tadbirkorlik subyektlariga mol-mulknini sug‘urta qilish xarajatlarining yarmini bir yilda bir marotaba davlatning byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan qoplab berish orqali takomillashtirish maqsadga muvofiq.

11. Qayta taqsimot jarayonlarining ijtimoiy nafliligini oshirishga respublikada ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan fuqarolarga ular faoliyatida zarur bo‘ladigan asosiy kapitalni xarid qilishda davlat tomonidan subsidiya berish tizimini ishlab chiqish orqali erishish yuqori ijtimoiy samara beradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/30.01.2021.I.16.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
УНИВЕРСИТЕТ**

**ХАЖИЕВ БАХТИЁР ДУШАБОЕВИЧ**

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМА ГОСУДАРСТВЕННОГО  
РЕГУЛИРОВАНИЯ РАСПРЕДЕЛИТЕЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ В  
НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ**

08.00.01 – Экономическая теория

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации доктора (DSc) экономических наук

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии под номером B2022.4.DSc/Iqt419.

Диссертационная работа выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на сайте Ученого совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

**Научный консультант:** Абдуллаев Суюн Артикович  
доктор экономических наук, профессор

**Официальные оппоненты:** Мамбетжанов Кахрамон Курбандурдиевич  
доктор экономических наук, профессор

Муродова Нодира Куллиевна  
доктор экономических наук, профессор

Ганиев Мухаматжон Халилович  
доктор экономических наук, доцент

**Ведущая организация:** Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «12» 03 2024 года в 14<sup>00</sup> на заседании научного совета DSc.03/30.01.2021.I.16.03 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72. Факс : (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (зарегистрировано под № 1411). Адрес: 100003, г. Ташкент, улица Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72. Факс : (99871) 239-43-51, e-mail: tdiu@tdiu.uz.

Автореферат диссертации разослан «16» 02 2024 года  
(протокол реестра № 46 от «16» 02 2024 года).



**С.К. Худойкулов**  
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**Д.С. Насирходжаева**  
Секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

**У.В. Гафуров**  
Председатель научного семинара при научном совете, доктор экономических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире в результате неравномерного распределения ресурсов и доходов в последние годы наблюдается тенденция сильной дифференциации между развитием стран и доходами населения. Особенно «высокий уровень неравномерного распределения национального дохода наблюдается в США, Китае, Индии и России, а средний уровень – в странах Западной Европы. Если в 1980-е годы 1 процент населения с высокими доходами в США имел средний доход в 439 тыс долларов США, то 50 процентов населения с низкими доходами имели средний доход в 16,4 тыс долларов США, то есть больше в 26,4 раза. К 2022 году этот показатель составил 1 572 тыс долларов США и 16,6 тыс долларов США, соответственно, что за 42 года в 3,6 раза увеличилось у людей с высокими доходами, и на 1 процент – у людей с низкими доходами. Разница между ними составила 94,7 раза»<sup>33</sup>. Это, в свою очередь, требует совершенствования концептуальных основ механизма регулирования отношений распределения в мировом масштабе.

В научных исследованиях, проводимых в мире, процессы распределения изучаются как глобальная проблема решения вопросов совершенствования механизма обеспечения гармонии социальной справедливости и эффективности особенно в процессах перераспределения. В частности, приоритетными направлениями исследований в этом направлении являются обеспечение открытости политики распределения, уточнение границ государственного и частного сектора управления в эффективном перераспределении бюджетных средств, усиление роли уполномоченных органов в обеспечении бюджетных средств, расширение участия населения в процессах перераспределения доходов, соблюдение режима реального времени в обеспечении открытости финансовой информации и ее эффективная реализация.

В Узбекистане особое внимание уделяется повышению эффективности процессов перераспределения доходов при обеспечении устойчивого социально-экономического развития и благосостояния населения. В частности, путем создания эффективной системы распределения «Обеспечение сохранения консолидированного дефицита бюджета в объеме ниже 4 процентов в 2024 году относительно ВВП и 3 процентов – в последующие годы»<sup>34</sup>, а также в процессах перераспределения доходов организация расходования «не менее 5 процентов бюджета каждого района на решение наиболее актуальных проблем, выявленных на основе предложений населения в рамках программы «Бюджет граждан»<sup>35</sup> определены как стратегические задачи. Задача расширения

---

<sup>33</sup> <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/about/annual-report#anchor-annual>; Клинов В.Г., Сидоров А.А. Мировые тенденции в распределении доходов и проблемы социально-экономического развития // Вопросы экономики. 2018. № 7. С. 33 // [https://mgimo.ru/upload/2022/01/Voprosy\\_ekonomiki\\_Mirovye\\_tendencii\\_v\\_raspredelenii\\_dohodov\\_i\\_problemy\\_socialno-ekonomicheskogo\\_razvitiya.pdf](https://mgimo.ru/upload/2022/01/Voprosy_ekonomiki_Mirovye_tendencii_v_raspredelenii_dohodov_i_problemy_socialno-ekonomicheskogo_razvitiya.pdf).

<sup>34</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» от 11 сентября 2023 года // <https://lex.uz/docs/-6600413>.

<sup>35</sup> Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28.01.2022 года // <https://lex.uz/docs/5841063>.

бюджетной открытости требует глубокого научного анализа концептуальных основ обеспечения открытости в процессе перераспределения доходов. Кроме этого, актуальными являются научные исследования, направленные на решение таких задач, как развитие прозрачной бюджетной системы для субъектов экономики в процессах перераспределения, прогнозирование возможных социальных конфликтов при распределении средств в инициативных бюджетных процессах, стимулирование участия органов государственного управления в процессе обеспечения бюджетной открытости.

Диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, поставленных в указах и постановлениях Президента Республики Узбекистан № УП-158 «О Стратегии «Узбекистан – 2030»» от 11 сентября 2023 года, № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-21 «О мерах по дальнейшему совершенствованию критериев разделения субъектов предпринимательства на категории, а также налоговой политики и налогового администрирования» от 10 февраля 2023 года, № ПП-3917 «О мерах по обеспечению открытости бюджетных данных и активного участия граждан в бюджетном процессе» от 22 августа 2018 года, № ПП-5072 «О дополнительных мерах по обеспечению активного участия граждан в бюджетном процессе» от 13 апреля 2021 года, № ПП-5250 «О мерах по дальнейшему расширению финансирования мероприятий, сформированных на основе общественного мнения посредством информационного портала «Открытый бюджет»» от 22 сентября 2021 года, № ПП-197 «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы выплаты государственных пенсий, пособий, компенсаций и иных социальных выплат» от 7 апреля 2022 года и ряде аналогичных нормативно-правовых актов.

